

Xorazm viloyatining 2022- yil yanvar- sentabr oylaridagi iqtisodiy holati yuzasidan

MA'LUMOT

2022- yilning 3- choragi yakunlariga ko'ra Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bo'yicha holatini o'zida aks ettiruvchi statistik ma'lumotlariga e'tiboringizni qaratamiz.

Joriy yilning o'tgan 9 oyi yakunlariga ko'ra, viloyatda:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 13 trln 136,2 mlrd so'mga, 2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi – 115,9 % ga teng bo'lgan.

- Viloyatimizda o'tgan davr mobaynida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 602,3 mlrd so'mni, o'sish sur'ati – 101,7 % ni tashkil qilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda umumiy maydoni 144,5 ming kv.m. bo'lgan 618 ta turar-joy ishga tushirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 %ga ko'paygan.

Ishga tushirilgan turar-joylarning 114,5 ming kv.m. (137,6 %) qishloq joylariga to'g'ri kelgan.

- Hisobot davrida viloyatimizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6 780,8 mlrd so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 %ga oshgan.

- Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 8 978,2 mlrd so'm, uning o'sish sur'ati – 112,9 % darajada qayd etilgan.

- Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 379,2 mlrd so'mni, hajmning o'sish sur'ati – 113,5 % ni tashkil qilgan.

- Hisobot davrida viloyatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmi 16 trln 466,7 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 101,7 %ga oshgan.

Respublika umumiy hajmida mazkur soha bo'yicha viloyatimizning ulushi 6,3 %ni tashkil etgan.

- Viloyatning tashqi savdo aylanmasi hajmi 591,6 mln AQSH dollariga teng bo'lgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 59,0 % ga ko'paygan.

Shundan eksportning hajmi 199,3 mln dollarni, o'sish sur'ati – 120,1 % ni, importning hajmi 392,3 mln dollar, o'sish sur'ati – 190,2%ni tashkil qilgan.

- 2022- yilning 1- oktabr holatiga Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni – 28 192 taga yetgan bo'lib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni – 24 922 tani tashkil qilgan.

A.O'tamuratov

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i v.b.